

Akademik litseyda uzoq yillar davomida samarali faoliyat yuritib, litsey ravnaqi uchun munosib hissa qo'shgan Finashina Irina Aleksandrovnaning 70 yillik muborak yubileyi tantanali tarzda nishonlandi

Jamiyatda shunday ulug' kasb borki — umrini, yoshligini, bilim va salohiyatini ilm-ma'rifatga bag'ishlab, yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladigan, ana shunday fidoyi ustozlardan biri, akademik litseyda uzoq yillar davomida samarali faoliyat yuritib, litsey ravnaqi uchun munosib hissa qo'shgan **Finashina Irina Aleksandrovnaning 70 yillik muborak yubileyi tantanali tarzda nishonlandi.**

Tadbir davomida ustozning ibratli hayot yo'li, ko'p yillik pedagogik faoliyati, ilmiy-ma'rifiy xizmatlari haqida iliq xotiralar va samimiy fikrlar bildirildi.

Tantanali kecha yakunida akademik litsey rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari Finashina Irina Aleksandrovnaga topshirildi.









SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati